

THEORETICAL FOUNDATIONS OF TEACHING THE SUBJECT OF INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION ON THE BASIS OF AN ELECTRONIC INFORMATION AND EDUCATIONAL RESOURCE

Shodmonqulov M.T.

Jizzax davlat pedagogika institute o'qituvchisi

Annotation. This article is devoted to the study of teaching methods and the creation of the discipline "Information technologies in education" in pedagogical higher educational institutions on the basis of electronic information and educational resources in the process of digitization. In the process of digitalization, there is an insufficient level of introduction of electronic information and educational resources. Therefore, this article discusses the stages of creating electronic information and educational resources and issues of organizing training based on them.

Key words: Digital technologies, Electronic resource, IT, teaching methods, multimedia, hypermedia

TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI ELEKTRON AXBOROT-TA'LIM RESURS ASOSIDA O'QITISH

Shodmonqulov M.T.

Jizzax davlat pedagogika institute o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamlashtirish jarayonida pedagogik oliy ta'lim muassasalarida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini elektron axborot-ta'lim resurslari asosida o'qitish va ularni yaratish metodikasi tadqiq etilgan. Raqamlashtirish jarayonida elektron axborot-ta'lim resurslarini joriy etish yetarli darajada emasligi ko'zga tashlanmoqda. Shu bois ushbu maqolada elektron axborot-ta'lim resurslari yaratish bosqichlari va ular asosida o'qitishni tashkil etish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiya, elektron resurs, IT, o'qitish metodikasi, multimediya, gipermediya.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТУ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ НА БАЗЕ ЭЛЕКТРОННОГО ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО РЕСУРСА

Аннотация. Данная статья посвящена изучению методики преподавания и создания в педагогических высших учебных заведениях дисциплины "Информационные технологии в образовании" на основе электронных информационно-образовательных ресурсов в процессе оцифровки. В процессе цифровизации наблюдается недостаточный уровень внедрения электронных информационно-образовательных ресурсов. Поэтому в данной статье рассмотрены этапы создания электронных информационно-образовательных ресурсов и вопросы организации обучения на их основе.

Ключевые слова: Цифровые технологии, Электронный ресурс, IT, методика обучения, мультимедиа, гипермедиа.

Hozirgi kunga kelib dunyoda ta'lim berish va ta'lim olish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki aynan sifatli ta'lim biz yashab turgan dunyoni turli muammolardan qutqarishda muhim rol o'ynashi endi xech kimga sir emas. Shu tufayli davlatlar ta'lim sohasiga katta mablag' ajratmoqdalar. Bu borada mamlakatimizda

ham salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. So'nggi yillarda elektron darsliklar, interfaol axborot texnologiyalari, matn, grafik, ovoz va videolarni birlashtiradigan elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalari orqali talabalarning o'qitishga bo'lgan motivatsiyasi kuchayib borayotgan ta'lim sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishga katta e'tibor qaratildi [1, b. 58].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son farmonida "Mamlakatda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ish olib borilmoqda". 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida "Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsad qilib belgilangan", 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmonlarida "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish ko'rsatib o'tilgan", hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim sifatini ta'minlash va uni boshqarishni takomillashtirishda axborotlashtirilgan muhitni yaratish, joriy qilish, oliy ta'lim tizimida axborotlar almashinuvi jarayonlarini tizimli tadqiq qilish, axborot-ta'lim muhitiga yaxlit tizim sifatida qarash, ushbu muhitni takomillashtirishga bo'lgan umumiy konseptual va metodik yondashuvlarni ishlab chiqish vazifalari belgilangan. 2020 yil 6 oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son qarorida "Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, respublikaning mehnat bozorida malakali kadrlar yetishmovchiligi axborot texnologiyalari sohasidagi o'quv dasturlari va uslublarini takomillashtirish, ta'lim muassasalarining IT-kompaniyalar bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda.". Ushbu vazifalar yechimini topishda oliy ta'lim muassasalarini axborot-kommunikatsiya vositalari orqali o'qitish tizimini takomillashtirish ehtiyoji mavjud. Ushbu ehtiyojdan kelib chiqib, har bir oliy ta'lim muassasasida elektron axborot – ta'lim resurslar, multimediali o'quv auditoriyalari tashkil etilmoqda, oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini jadallashtirish, shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan ishlarini jonlantirishga e'tibor berilmoqda. Biroq, tadqiqot doirasida sohadagi vaziyatni tahlil qilish natijasida, oliy ta'lim muassasalarida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini elektron axborot – ta'lim resurslar asosida o'qitishni takomillashtirish va raqamlashtirish kontekstidagi faoliyati ayrim o'rinlarda tizimlashtirishni talab etmoqda.

Ta'limni axborotlashtirish sohasidagi tadqiqotlar butun dunyoda ham dolzarbdir [2, b. 152]. Ishlarning asosiy qismi kelajakda o'qituvchilarning axborot texnologiyalari bilan ishlashga tayyorligi, shuningdek, elektron darsliklar, raqamli ta'lim resurslari va multimedia o'quv dasturlari kabi raqamli ta'lim mazmunini ishlab chiqish masalalariga bag'ishlangan.

Shunday bo'lishiga qaramay ta'lim tizimimizda hali o'z yechimini kutayotgan qator masalalar borki ularni bartaraf etmasdan zamonaviy sifatli ta'lim haqida gapirib bo'lmaydi. Xususan axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda, fikrimizcha, ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni jalb etmasdan ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalash mumkin emas. Biz ilgari ta'lim dasturlarini an'anaviy usulda ma'ruza shaklida olib borganmiz. Bu ham yirik xajmli kitoblar va qo'llanmalar orqali amalga oshirilgan. Bu o'z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta'minlamagan. O'quvchilar turli qo'shimcha materiallarni o'zlashtirish uchun ham yirik xajmdagi adabiyotlar va katta qappaygan sumkalarni ko'tarib yurishga majbur bo'lgan. Endilikda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlandi.

O'quvchilarning yangi avlodlari zamonaviy axborot manbalariga, raqamli ta'lim texnologiyasiga, shaxsiy o'sishi uchun virtual aloqa vositalariga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda, chunki o'quv ma'lumotlarini raqamli shaklda taqdim etish talabaga kompleks ta'sir ko'rsatadi-ta'limga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, bilimlar doirasi kengayadi, ta'lim sifati yaxshilanadi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida qayta aloqa yaxshilanadi [3, b.19].

Bu esa ta'lim oluvchiga zamonaviy qulayliklar yaratib ta'lim olishni osonlashtirmoqda. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta'lim tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi. Bugungi pandemiya sharoiti ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Raqamli ta'limga o'tishning boshqa afzalliklari to'g'risida ham fikr yuritadigan bo'lsak ularga quyidagilarni kiritish o'rinlidir. O'quvchilar xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi; - o'quvchilar mutaxassis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydun turib ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi; - internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi; - ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi; - vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi; - "raqamli dunyo"da yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'ladi. Bugun mamlakatimizning barcha xududlarida ham internet tezligi yetarli emas. Bu esa o'z navbatida raqamli ta'lim tizimiga o'tishga to'sqinlik qiladi. Buni bartaraf etish uchun esa xukumat darajasidagi katta ishlar amalga oshirish talab etiladi. Prezidentimizning Oliy Majlisga murojaatnomalarida ayni shu sohada ko'rsatmalar berilgani biz fikr yuritayotgan sohada sezilarli yuksalish yuz berishiga ishonтиради.

Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga xizmat qiladi. Raqamli ta'limning joriy etilishi o'qituvchilar orasida ishsizlikni keltirib chiqarishi extimolini yuzaga keltiradi, ammo buni ham bartaraf etish imkoni mavjud. Buning uchun o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish orqali bandligini ta'minlash mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga jaxon xamjamiyatida muhim o'rin egallashimizni ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Половина Г.Б. Интеграция мультимедийных технологий с традиционными учебными дисциплинами в системе повышения квалификации учителей-предметников // Информатика и образование. 2009. № 5.
2. Мямешева Г. Добродетель в современном смарт-мире // Bulletin KazNU. «Pedagogical science» series. – 2015. - #1 (44). – с.152-157.
3. Джусубалиева Д.М., Мынбаева А.К., Сері Л.Т., Тахмазов Р.Р. Цифровые технологии в иноязычном образовании. Дистанционное обучение: Учебно-методическое пособие. – Алматы, 2019. – 252 с.